


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda) (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan (birlikda)

Faoliyat ko'rsatayotgan (birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



Hududlar kesimida

Qarshi sh	5689
Qarshi	2039
Kitob	1995
Yakkabog'	1875
Koson	1845
Qamashi	1701
Shahrisabz sh	1605
Chiroqchi	1472
Shahrisabz	1421
Nishon	1348
G'uzor	1324
Kasbi	1260
Dehqonobod	1123
Mirishkor	958
Muborak	922
Ko'kdala	879


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 27 456 tani tashkil etdi, ulardan 22 605 tasi tadbirkorlik subyektlari. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14,4 foiz, sanoat – 10,1 foiz, qurilish – 7,1 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Qarshi shahrida – 20,7 foiz, tumanlardan Qarshi – 7,4 foiz, Kitob – 7,3 foiz, Yakkabog' – 6,8 foiz va Kosonda – 6,7 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

2024- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda



Hududlar kesimida

Qarshi sh	873
Qarshi	457
Koson	350
Kitob	301
Qamashi	290
Yakkabog'	290
Shahrisabz sh	264
Ko'kdala	234
Nishon	228
Shahrisabz	220
G'uzor	218
Kasbi	210
Chiroqchi	202
Mirishkor	191
Dehqonobod	173
Muborak	168


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 4 669 tani tashkil etdi. Ularni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda savdo – 1 602 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 941 ta, sanoat – 707 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 398 ta, qurilish – 193 ta, tashish va saqlash – 114 ta, axborot va aloqa – 111 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 81 ta, boshqa turlar – 522 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 22 605 tani tashkil etdi, ulardan 22 452 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,4 foiz, sanoat – 12,2 foiz, qurilish – 8,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 3,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,8 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, boshqa turlari – 9,6 foiz


Hududlar kesimida

Qarshi sh	4 805	Nishon	1 134
Qarshi	1 741	Shahrisabz	1 122
Kitob	1 658	G'uzor	1 068
Yakkabog'	1 540	Kasbi	1 048
Koson	1 498	Dehqonobod	874
Qamashi	1 400	Muborak	766
Shahrisabz sh	1 366	Mirishkor	764
Chiroqchi	1 167	Ko'kdala	654


Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2024- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 494 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 484 ta;
- yirik korxonalar 10 tani tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Qarshi sh	822	17,1 %
Qarshi	445	25,6 %
Koson	339	22,6 %
Kitob	294	17,7 %
Qamashi	281	20,1 %
Yakkabog'	277	18,0 %
Shahrisabz sh	256	18,7 %
Ko'kdala	226	34,6 %


Nishon	224	19,8 %
G'uzor	210	19,7 %
Shahrisabz	206	18,4 %
Kasbi	202	19,3 %
Chiroqchi	194	16,6 %
Mirishkor	189	24,7 %
Dehqonobod	166	19,0 %
Muborak	163	21,3 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (21,2 foiz), Qarshi (7,7 foiz), Kitob (7,4 foiz), Yakkabog' (6,8 foiz) va Koson (6,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Qarshi sh	4 750	Nishon	1 132
Qarshi	1 730	Shahrisabz	1 113
Kitob	1 651	G'uzor	1 058
Yakkabog'	1 535	Kasbi	1 043
Koson	1 485	Dehqonobod	871
Qamashi	1 397	Mirishkor	763
Shahrisabz sh	1 358	Muborak	753
Chiroqchi	1 161	Ko'kdala	652

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot


2024- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


22,7 % 30,4 % 23,5 % 21,2 % 20,0 %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Hududlar kesimida

Qarshi sh	818	17,2 %
Qarshi	445	25,7 %
Koson	338	22,8 %
Kitob	294	17,8 %
Qamashi	281	20,1 %
Yakkabog'	276	18,0 %
Shahrisabz sh	255	18,8 %
Ko'kdala	226	34,7 %


Nishon	224	19,8 %
G'uzor	210	19,8 %
Shahrisabz	204	18,3 %
Kasbi	202	19,4 %
Chiroqchi	193	16,6 %
Mirishkor	189	24,8 %
Dehqonobod	166	19,1 %
Muborak	163	21,6 %

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati bo'yicha ma'lumot


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qamashi	499
Nishon	423
Kasbi	365
Kitob	321
Yakkabog'	321
Mirishkor	279
Shahrisabz	278
Koson	267
Qarshi	262
Dehqonobod	252
Muborak	146
Qarshi sh	138
G'uzor	126
Ko'kdala	126
Chiroqchi	124
Shahrisabz sh	38



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p qismi Qamashi (12,6 foiz), Nishon (10,7 foiz) va Kasbi (9,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.




Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

2025-yil 1-yanvar holatiga koʻra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	521
Kitob	352
Yakkabogʻ	242
Shahrisabz sh	232
Shahrisabz	201
Qarshi	198
Gʻuzor	170
Koson	136
Chiroqchi	133
Qamashi	116
Kasbi	95
Nishon	91
Koʻkdala	85
Muborak	70
Mirishkor	68
Dehqonobod	61



Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega boʻlgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 10,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 89,3 foizini ishlab chiqarish sanoati, 8,6 foizini togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,4 foizini suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish va 0,7 foizini elektr, gaz bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	589
Qarshi	220
Koson	174
Yakkabog'	106
Chiroqchi	102
Shahrisabz sh	95
Muborak	85
Kasbi	83
Kitob	76
Qamashi	75
Shahrisabz	75
G'uzor	64
Nishon	57
Dehqonobod	53
Mirishkor	47
Ko'kdala	40



Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki: - binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 58,2 foiz ulushni tashkil etdi; - ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 21,0 foiz ulushni tashkil etdi. - fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 20,8 foiz ulushni tashkil etdi;



Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	1 925
Qarshi	684
Koson	644
Chiroqchi	567
Shahrisabz sh	539
Yakkabog‘	525
Kitob	515
G‘uzor	458
Qamashi	451
Nishon	391
Kasbi	361
Dehqonobod	345
Shahrisabz	332
Muborak	314
Ko‘kdala	286
Mirishkor	268



Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 8 574 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 68,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 22,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlash yo‘nalishida 8,7 foiz ulushni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qarshi sh	387
Kitob	155
Shahrisabz sh	137
Yakkabog'	123
Shahrisabz	109
Qarshi	88
Chiroqchi	79
Qamashi	74
G'uzor	71
Dehqonobod	59
Nishon	49
Koson	47
Ko'kdala	43
Muborak	37
Kasbi	28
Mirishkor	20



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 506 taga yetib, ularning 1 495 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,2 foiz ulushini tashkil etdi;


restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,8 foiz ulushini tashkil etdi.



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qarshi sh	138
Chiroqchi	38
Qarshi	33
Shahrisabz sh	22
G'uzor	20
Koson	18
Kitob	16
Kasbi	13
Yakkabog'	12
Qamashi	10
Nishon	8
Ko'kdala	7
Dehqonobod	6
Muborak	3
Mirishkor	2
Shahrisabz	2



2025-yil 1-yanvar holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 67,2 foizini;

Axborot xizmatlari va nashirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 29,6 foizini;


Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,2 foizni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qarshi sh	238
Shahrisabz sh	80
Yakkabog'	73
Kitob	65
Koson	47
Qarshi	42
Shahrisabz	35
Qamashi	34
Chiroqchi	28
G'uzor	25
Nishon	20
Muborak	18
Mirishkor	17
Kasbi	17
Dehqonobod	11
Ko'kdala	7



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 631 ta yoki 83,4 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 96,3 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi; yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar sonining 2,2 foizni tashkil etdi;


yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,5 foizini tashkil etdi.



Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qarshi sh	262
Qarshi	68
Shahrisabz sh	60
Koson	49
Yakkabog'	48
Kitob	44
G'uzor	42
Shahrisabz	38
Kasbi	33
Mirishkor	29
Chiroqchi	19
Dehqonobod	13
Nishon	13
Ko'kdala	13
Qamashi	11
Muborak	9



2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:


- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 79,8 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 16,5 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,6 foizni tashkil etgan.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:


- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Boshqa turlar

Yetakchi o'rinni 29 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 17,3 foiz), Turkiya (ulushi 9,4 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,5 foiz) va Qozog'iston (ulushi 2,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Qarshi sh	33	Dehqonobod	7
Muborak	13	Kasbi	6
G'uzor	12	Yakkabog'	6
Nishon	11	Qamashi	5
Koson	9	Mirishkor	5
Chiroqchi	9	Shahrisabz	4
Qarshi	8	Ko'kdala	2
Kitob	8	Shahrisabz sh	2

Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 79 tasi qo'shma korxonalar, 61 tasi esa xorijiy korxonalar hisobga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

qo‘shma korxonalar		xorijiy korxonalar
8	G‘uzor	4
5	Dehqonobod	2
3	Qamashi	2
5	Qarshi	3
6	Koson	3
3	Kitob	5
3	Mirishkor	2
5	Muborak	8
5	Nishon	6
1	Kasbi	5
-	Ko‘kdala	2
7	Chiroqchi	2
3	Shahrisabz	1
3	Yakkabog‘	3
21	Qarshi sh.	12
1	Shahrisabz sh.	1

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.